

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING RO'LI VA BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI

Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

altiboyevxudayberdi@gmail.com

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich¹

¹ PhD, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

jamshidtukhtabaev@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:26.02.2025

Revised: 27.02.2025

Accepted:28.02.2025

KALIT SO'ZLAR:

tijorat banklari,
mikroiqtisodiyot
moliyaviy barqaror
resurslar, bankalarining
resurslari,
makroiqtisodiyot,
depozitlarga,
banklararo kreditlar,
emission operatsiya..

Ushbu maqola O'zbekistonda tijorat banklarining resurslari banklarning asosiy daromad manbai hisoblanishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaraga erishishda banklarning resurslarini samarali boshqarish muhim o'rin tutishi, tijorat banklarini moliyaviy barqaror resurslar bilan ta'minlash muammosi bank resurslarini boshqarish zaruriyatini keltirib chiqarish hamda davlat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarining yangi mexanizmlari mazmuni tadqiq qilinadi.

KIRISH. Bank resurslarini boshqarish tijorat banklariga foydani oshirishga va transformatsiya riskiga kamroq uchrashiga olib keladi. Ushbu maqolada tijorat bankalarining resurslari va ularning barqarorligini ta'minlash yo'llariga to'xtalib o'tilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaraga erishishda banklarning resurslarini samarali boshqarish muhim o‘rin tutadi. Tijorat banklarini moliyaviy barqaror resurslar bilan ta‘minlash muammosi bank resurslarini boshqarish zaruriyatini keltirib chiqargan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga innovatsiyalarni joriy etish va uning raqobatbardoshligini oshirish tijorat banklari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarining poydevori mustahkamlashgan sari, shunga nisbatan bank tizimining ham ahamiyati tobora ortib boraveradi hamda uning takomillashtirish zarurati ham yuzaga kelaveradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi joriy 2025 yilga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni bilan qabul qilinganligi, ushbu strategiya doirasida moliyaviy sektorda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, ilg‘or bank amaliyotlarini joriy etish va sektor ichida raqobat muhitini kuchaytirish uchun huquqiy asoslar shakllantirilganligi ham xuddi shu jumladandir.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash yuzasidan turli yondashuvlar, baholashda esa maqsad va vazifalariga qarab farqlanadi. Iqtisodiy sub’ektlar ko‘pincha nazorat organlari tomonidan qo‘llanilayotgan va tasdiqlangan modellarga asoslanib yuqorida qayd etilgan sharhlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ikkinchisi alohida asosiy ahamiyatga ega. Jahon makroiqtisodiy muhitida yuz berayotgan o‘zgarishlar hisobga olinsa, moliyaviy barqarorlikni baholash modellarining aksariyati jiddiy o‘zgartirishlarni talab qiladi.

Rossiya iqtisodchi olimi L.Goncharenko tijorat banklarining resurslari bankning ixtiyorida bo‘lgan o‘z va jalb qilingan resurslarining yig‘indisi bo‘lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda muhim ekanligini e‘tirof etadi [2]. Tabiiy resurslar, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqalar vas shu kabilarga asoslanib, iqtisodiy resurslarni iqtisodiy imkoniyatlarning asosiy elementlaridan biri sifatida qaralish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari tarmoqlarining kengayishi tufayli, ular orasida - depozitlarga, banklararo kreditlarga va boshqa bank resurslariga raqobatning kuchayishi vujudga keladi. Bank ishini samarali yuritish - uning faoliyatini tashkil etilganligi - unga ta‘sischilari va mijozlari tomonidan bo‘lgan [ishonchi](#) va bankning barqarorligiga bog‘liq [1]. Demak, resurs mablag‘larni jalb qilish asosiy rollardan birini o‘ynaydi.

O'z navbatida, resurs mablag'larni jalb qilish ko'pincha, tashqi omillar bilan: sub'ektlarning iqtisodiy aktivlik darajasi, hududning [rivojlanganlik darajasi](#), muqobil turdagi depozitlarning qo'yilishi va inflyatsiya darajasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, nobarqarorlik davrida resurslarni jalb qilishning asosiy faktori bo'lib bank reputatsiyasi hisoblanadi. Bu esa, ko'pincha, bankni boshqarish sifatiga bog'liq [3].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 22-noyabr sanasida bank tizimidagi muammolarga bag'ishlangan videoselektorida Respublikamiz tijorat banklarining passivlarini boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan tijorat banklarining resurs bazasining yetarli emasligi to'g'risida urg'u bergan edi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jami depozitlari hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i 59,5 foizni tashkil etganligi, bu esa, banklarning depozit bazasini yetarli emasligini ko'rsatgan edi. Chunki, tijorat bankining depozit bazasi yetarli bo'lishi uchun talab qilib olinadigan depozitlarning jami depozitlardagi salmog'i 30 foizdan oshmasligi kerak. Ikkinchidan, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan emission operatsiyalarining rivojlanmaganligi. 2024-yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jami passivlari 738,7 trln. so'mni tashkil etdi. Shu bilan birga, tijorat banklarining jami kreditlari 515,6 trln. so'mni tashkil etgan. Kreditlar ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda zarur manba hisoblanadi. Bo'sh mablag'larni jalb qilib, ularni kredit sifatida tadbirkor va investorlarga taqdim etadigan tijorat banklarining iqtisodiy jarayonlardagi roli juda katta.

I.Omelchenko e'tirofiga ko'ra bank moliyaviy barqarorligining mohiyati uning shunday moliyaviy holatidirki, unda bankning xo'jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta'minlashga imkon beradi deydi [4]".

Haqiqatdan ham moliyaviy barqarorlik doimiy tarzda bozor kon'yunkturasi o'zgarib borishi sharoitida bankning o'z moliyaviy stabilligini saqlab qolish qobiliyatidir. Aytish mumkinki, bank moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to'lovga layoqatlilik ta'minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o'sishiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi.

Bu borada ko'rilgan tizimli choralar natijasida oxirgi ikki yilda banklar tomonidan investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lami [sezilarli darajada kengayib](#), kredit portfeli hajmi 3,2 barobar o'ganligi statistik ma'lumotdir. Hududlarni rivojlantirish dasturlari doirasida 6400 ta loyiha uchun 27 trillion so'm kredit ajratildi.

Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan dahlsiz, yana bir e'tiborni tortadigan manba borki, iqtisodiyotda ahamiyatga ega bo'lgan, operatsiyalarni bajaradigan banklar qanday mulkiy shaklda yoki ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qat'iy nazar, ular iqtisodiyotda alohida va yetakchi ahamiyat kasb etadi [5]. Ta'kid orinliki, banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyati quyidagi: jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larni tegishli shartlar asosida o'ziga jalb etish; qo'shimcha moliyaviy mablag'larga ehtiyoji mavjud xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga qaytarish, to'lovlik, muddatlilik va ta'minlanganlik asosida mablag'lar berish; milliy valyutaning emissiyasini tashkil etish va uning barqarorligini ta'minlash doirasida pul – kredit siyosatini amalga oshirish; pul aylanmasini tashkil etib, uning tartibini belgilash; iqtisodiy munosabatlarga kirishuvchi sub'ektlar o'rtasida hisob – kitob va to'lovlarni amalga oshirishda vositchilik qilish; bozor ishtirokchilariga turli darajadagi komission va maslahat xizmatlarini amalga oshirish; aholiga va mijozlarga trast va depozitar xizmatlarini taklif etish; vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arish asosida ularni iqtisodiyotning tegishli tarmoqlariga qayta taqsimlash kabilarni o'z ichiga oladi [6].

Kuzatish jarayonida ravshanlashadiki, moliyaviy resurslarning ajralmas qismi bo'lgan bank resurslarini ko'rib chiqilganda, dastlab banklarning majburiyatlari va ularning resurslari bir xil tushunchalar emasligi ko'zga tashlanadi. Bank passivlari bank resurslarining manbai hisoblanadi. Bank resurslari bank balansining passiv qismida aks ettiriladi. Ularning o'lchami o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan bank faoliyati; markaziy bankning pul-kredit siyosati va banklardan qarz mablag'lari va ularning tuzilishi; tijorat bankining Markaziy bankdagi majburiy zahira miqdori bilan asoslanadi.

Iqtisodchi olimlarning manbalari va bank mablag'larini shakllantirish bo'yicha izlanishlarida turli xil talqinlar kuzatiladi. Jumladan bank resurslari, kredit resurslari, depozit resurslari, bank majburiyatlari kabi atamalarni keltiriladi. Rus olimi Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurslari yoki "Bank resurslari" bu o'z va qarzga olingan resurslarning yig'indisi bo'lib, bankda aktiv operatsiyalarni o'tkazish uchun foydalaniladi. Bank resurslariga bo'lgan ehtiyoj banklarni shakllanishida va bank faoliyatini amalga oshirishda paydo bo'ladi. Banklarni tashkil etishning dastlabki bosqichlarida banklar o'z kapitaliga ega bo'lishi va kelgusidagi faoliyati uchun resurslarni jalb etishi zarur [3].

Bank siyosatining tahlil natijalarini aniqroq chiqarish va uni olib borish bank marketingiga bog'liq bo'ladi. Bunda ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining birlamchi ko'rsatkichlaridan ekanligi bilan asoslanadi. Bank marketingi bu bozorda bo'layotgan jarayonlarni to'la hisobga olgan holda kompaniya va firma faoliyatini bajarish

va tashkil etish tizimidir. Bank marketingi esa shu ma'lum bir regionda va regiondan tashqarida bank xizmatlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, bank xizmatlariga bo'lgan talabni boshqarish va qondirish, turli banklar tomonidan amalga oshirilayotgan bir turdagi operatsiyalar harajatini taqqoslash, innovatsion reklamani amalga oshirish tizimidir.

Bank marketingi birinchi navbatda bankning potentsial mijozlarini qidirib topishini bildiradi. Bank mijozni hamda o'zining iqtisodiy potentsialini birgalikda qo'shib o'rganadi. Bank xizmatini yangi turlariga (innovatsion turlariga) bo'lgan talabni o'rganish hozirgi zamon banklarining eng dolzarb masalasidir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston banklar tizimining rivojlanish tendensiyalari ularning yangi taraqqiyot bosqichida iqtisodiyot rivojlanishiga munosib hissa qo'shayotganligidan dalolat beradi, mamlakatimiz banklari faoliyatida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, infratuzilmalarni rivojlantirish, davlat tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish, jadal rivojlanayotgan ta'lim sohalarini moliyalashtirish hamda xalqaro bozorlar bilan aloqalarni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Tujorat banklari resurslarini boshqarish banklarning bank siyosatidan resurslarni belgilab qo'yiladi. Asosan boshqarishda kredit operatsiyalari, depozit operatsiyalari, riskli aktivlarni sug'urtalash noan'anviy usullari quyidagi sifatida banklar usullardan xedjerlash sekyuritizatsiyalashni ta'kidlash lozim.

Adabiyotlar:

1. Баканов М.И. Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях / О. А. Лаенко // Вестник Прикамского социального института. –2016. – No 2. –С. 52-55..
2. Гончаренко Л.И. Операции банков с драгоценными металлами: проблемы налогообложения и освобождения от НДС // Налоговая политика и практика. - 2008. - №8. - С. 44- 51.-0,75 п.л.
3. Кузнецов Е.И. (2008) “Ссудная задолженность кредитных организаций: проблемы и инструменты ее урегулирования / Автореф. дисс канд. экон. наук. М., С.14.
4. Омельченко И.И. Финансово экономическая стабильность как составная часть организационно экономической устойчивости предприятий // Вестник машиностроения. 2017. No 4. С. 65
5. Axrorov Z.O., Jalilov Sh. Banklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari. Risola. – Samarqand: SamISI, 2017. – 27 b.
6. Burxanov A.U. “Banklar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot”. Monografiya. T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2019. 160 b.